

28 yanvar - "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasining 28 yilligi

2020 28 Yanvar

Bugun, 28-yanvar kuni O'zbekiston aviakompaniyasi o'zining 28 yilligini nishonlamoqda. An'anaga ko'ra, ushbu kunda "Uzbekistan Airways" direktsiyasida aviakompaniya rahbariyati, xodimlari va faxriylari ishtirokida bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Aviatorlarga eng samimi tabriklar va istaklar yo'llanib, aviatashuvchini rivojlantirishdagi ularning xizmatlari va mamlakatimiz aviatsiya sohasining xalqaro maydonidagi obro'sini oshirishga qo'shgan hissalar qayd etildi.

"Uzbekistan Airways"ning 28 yilligi munosabati bilan ko'p yillik benuqson mehnati va yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, mehnatsevarlik hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qo'shgan ulkan hissasi uchun 24 nafar aviakompaniya xodimlariga "Mehnat faxriysi" unvoni berildi, 36 nafar xodim professional va samarali mehnatlari uchun Faxriy yorliq bilan mukofotlandi. 38 aviatsiya mutaxassis pul mukofoti bilan taqdirlanib, 44 ta xodimga tashakkurnoma e'lon qilindi.



Bayram kontsertida aviaxodimlar tomonidan ijro etilgan yorqin musiqiy chiqishlar, qo'shiqlar va she'rler tadbir ishtirokchilariga ko'tarinki kayfiyat ulashib, ajoyib tuyg'ularni uyg'otdi.

Barcha aviaxodimlarni aviakompaniya tashkil etilgan kun bilan chin dildan tabriklaymiz, sizlarga sihat-salomatlik, musaffo osmon, muvaffaqiyatli parvozlar, eng ulkan orzu va rejalaringiz amalga oshishini hamda aviakompaniyamiz va O'zbekiston fuqaro aviatsiyasining farovonligi yo'lidagi mehnatingizda ulkan zafarlar tilaymiz!



Bayramingiz muborak bo'lsin azizlar! "Uzbekistan Airways" tug'ilgan kuning bilan!